



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 /ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALLASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozov Komil Bahromovich</i>	122
34	ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ» <i>Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолiddин кизи</i>	125
35	TA'LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRI <i>Hamroyeva Dilso'z Yahoyevna, Ro'ziyeva Shaxruza Sherali qizi</i>	131
36	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI <i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	134

37	O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI <i>Qosimova Hilola Jamshedovna</i>	138
38	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG'URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI <i>Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi</i>	143
39	O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH <i>Ikramova Nasiba Axmadovna</i>	146
40	LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Abdaturapova Dildora Farxodjon qizi</i>	149
41	SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI <i>Djumaniyazov Shavkat Raximovich</i>	151
42	O'ZBEKISTON SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matkarimova Iroda Muxtorovna</i>	155
43	YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI <i>Yoqubova Fotimaxon Baxromjonovna</i>	159
44	O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI YO'LGA QO'YISHNING DOLZARBLIGI VA IKKILIK BANK TIZIMI <i>Sohibnazarov Abdurashid Abduvohidovich</i>	162
45	O'ZBEKISTONDA KIBERJINOYAT RISKLARINI STRATEGIK BOSHQARISHNI HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI <i>Xasanov Umidjon Yusupovich</i>	167
46	CLOUD-BASED MANAGEMENT SYSTEMS AND THEIR IMPACT ON UNIVERSITY GOVERNANCE: A PROPOSED PLS-SEM FRAMEWORK FOR HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN <i>Olimjonov Abbasjon Olimjonovich</i>	170
47	ПРОГНОЗНО-ПЛАНОВАЯ СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И СБАЛАНСИРОВАННОСТИ РЫНКА ТРУДА <i>Холбаева Сабина Рустамовна</i>	173
48	TURIZM IQTISODIYOTIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI <i>Jalolov Otabek Oybek o'g'li</i>	177
49	MAHALLA TIZIMIDA MADANIY LOYIHALARNI BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN IJTIMOIIY-IQTISODIY MODELI: JAMOATCHILIK ISHTIROKI, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INSTITUTSIONAL ISHONCH YONDASHUVI <i>Umarova Roxilaxon Xaliljon qizi</i>	181
50	KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA «YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY TALQINI <i>Aripov Oybek Abdullayevich</i>	185
51	ENHANCING THE MECHANISMS OF HIGHER EDUCATION QUALITY ASSURANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL GOVERNANCE <i>Rakhimov Olim Khamidovich, Zhang Meimei</i>	188
52	TURIZM SUG'URTASIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH: TRCM MODELI VA PARAMETRIK SUG'URTA ASOSIDA <i>Maksudova Umeda Sharifovna</i>	194
53	AGROSANOAT MAJMUINI RAQAMLI BOSHQARISH – ZAMON TALABIDIR <i>Kuldashev Erkin</i>	197

54	<i>HUDUDLAR IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION EKOTIZIMLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI</i> <i>Maxamatova Malika Abdurashid qizi</i>	201
55	<i>MECHANISMS FOR THE USE OF INTELLECTUAL ALGORITHMS IN OPTIMIZING CONSTRUCTION COSTS AND DEVELOPING SERVICE PROVISION BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE</i> <i>Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich</i>	205
56	<i>DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA KONSESSIYA SHARTNOMALARI VA SPV MEXANIZMIDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI</i> <i>Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	209

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



TURIZM SUG'URTASIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH: TRCM MODEL VA PARAMETRIK SUG'URTA ASOSIDA

Maksudova Umeda Sharifovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Sug'urta ishi"

kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: umedamaksudova87@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-5799-9527>

Annotatsiya: So'nggi yillarda xalqaro turizmning jadal rivojlanishi, iqlim o'zgarishi, pandemiyalar, transport tizimidagi uzilishlar, kiberxavfsizlik tahdidlari hamda geosiyosiy beqarorlik turizm sohasidagi risklarning murakkablashuviga olib kelmoqda. An'anaviy turizm sug'urtasi amaliyotida sug'urta hodisasi sodir bo'lgandan keyingina zarar qoplanishi sababli da'volarni ko'rib chiqish muddati uzoq davom etadi hamda ma'muriy xarajatlar yuqori bo'ladi. Mazkur maqolada turizm sug'urtasida risklarni boshqarishni takomillashtirish maqsadida Turizm Risklarini Ko'p Qatlamli Baholash Modeli (TRCM) hamda parametrik sug'urta mexanizmlarining afzalliklari tahlil qilinadi. Taklif etilgan model turistik mahsulotning hayot sikli davomida tibbiy, transport, kiberxavfsizlik, iqlim va geosiyosiy risklarni kompleks baholash imkonini beradi. Parametrik sug'urta esa oldindan belgilangan trigger hodisalari asosida avtomatik sug'urta to'lovlari amalga oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va matematik modellashirish usullaridan foydalanildi. Natijalar TRCM modeli va parametrik sug'urtani integratsiyalash risklarni boshqarish samaradorligini oshirish, sug'urta tariflarini aniqlashtirish hamda da'volarni ko'rib chiqish muddatini sezilarli qisqartirish imkonini berishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: turizm sug'urtasi, risklarni boshqarish, parametrik sug'urta, TRCM modeli, InsurTech, raqamli sug'urta, O'zbekiston.

Abstract: The rapid development of international tourism, digital transformation, climate change, pandemics, cyber threats, and geopolitical instability have significantly increased the complexity of travel-related risks. Traditional travel insurance models primarily focus on compensating losses after insured events occur, which often results in lengthy claim settlement procedures, high administrative costs, and reduced customer satisfaction. Consequently, there is a growing need for innovative approaches that enable proactive risk assessment and automated compensation mechanisms. This study aims to improve travel insurance risk management by integrating the Tourism Risk Classification Model (TRCM) with parametric insurance mechanisms. The proposed TRCM model evaluates tourism risks dynamically throughout the entire travel life cycle by incorporating medical, transportation, cyber, climate, and geopolitical risk indicators. Furthermore, the article discusses the application of parametric insurance based on predefined trigger events, enabling automatic claim settlement without traditional loss assessment procedures. The research employs comparative analysis, economic-statistical methods, system analysis, and mathematical modeling using official statistics of Uzbekistan's insurance market and international tourism insurance practices. The findings indicate that combining TRCM with parametric insurance enhances risk identification, improves underwriting accuracy, reduces claim settlement time, and strengthens customer confidence. The proposed framework may contribute to the digital transformation of Uzbekistan's insurance industry and improve the competitiveness of tourism insurance products.

Keywords: Travel insurance, tourism risks, TRCM model, parametric insurance, risk management, InsurTech, digital insurance, Uzbekistan.

Абстрактный: В последние годы стремительное развитие международного туризма, изменение климата, пандемии, сбои в транспортной системе, угрозы кибербезопасности и геополитическая нестабильность привели к усложнению рисков в туристическом секторе. В традиционной практике страхования туризма, поскольку ущерб компенсируется только после наступления страхового случая, период обработки претензий длительный, а административные издержки высоки. В данной статье анализируются преимущества многоуровневой модели оценки туристических рисков (TRCM) и параметрических механизмов страхования для улучшения управления рисками в туристическом страховании. Предложенная модель позволяет проводить комплексную оценку медицинских, транспортных, кибербезопасности, климатических и геополитических рисков на протяжении всего жизненного цикла туристического продукта. Параметрическое страхование, в свою очередь, служит для осуществления автоматических страховых выплат на основе заранее определенных триггерных событий. В исследовании использовались экономико-статистический анализ, систематический подход, сравнительный анализ и методы математического моделирования. Результаты показали, что интеграция модели TRCM и параметрического страхования позволяет повысить эффективность управления рисками, уточнить страховые тарифы и значительно сократить время обработки претензий.

Ключевые слова: туристическое страхование, управление рисками, модель TRCM, параметрическое страхование, цифровое страхование, InsurTech

Kirish (Введение/Introduction).

Turizm jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib, bandlikni ta'minlash, valyuta tushumlarini ko'paytirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa ko'shmoqda. Xalqaro turizm tashkilotlari ma'lumotlariga ko'ra, COVID-19 pandemiyasidan keyin turizm sohasining tiklanish sur'atlari sezilarli darajada jadallashdi va xalqaro turistlar harakatchanligi yanada oshdi. Biroq turizmning tez sur'atlarda rivojlanishi tibbiy favqulodda holatlar, transport tizimidagi uzilishlar, kiberxavfsizlik tahdidlari, tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishi hamda geosiyosiy mojarolar kabi turli xil noaniqliklar ta'sirining kuchayishiga ham olib keldi.

Mazkur o'zgarishlar turizm risklarining mazmuni va tarkibini tubdan o'zgartirib, an'anaviy turizm sug'urtasi mahsulotlarining samaradorligiga

jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Amaldagi sug'urta modellari asosan sug'urta hodisasi sodir bo'lganidan keyin yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan bo'lib, da'volarni ko'rib chiqish jarayoni ko'p vaqt talab qiladi. Natijada sug'urta kompaniyalarining operatsion xarajatlari ortib, mijozlar sug'urta tovonini olishda ma'lum kechikishlarga duch keladilar. Bu esa iste'molchilarning qoniqish darajasini pasaytiradi hamda turizm sug'urtasi mahsulotlarining raqobatbardoshligini susaytiradi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari va InsurTech texnologiyalarining jadal rivojlanishi turizm sug'urtasini modernizatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyasi, katta ma'lumotlar tahlili (Big Data Analytics), Ashyolar interneti (IoT) hamda parametrik sug'urta mexanizmlari sug'urta kompaniyalariga risklarni yanada aniq baholash, sug'urta

da'volarini avtomatlashtirish va mijozlarga moslashtirilgan sug'urta mahsulotlarini taklif etish imkonini bermoqda. Ushbu innovasion texnologiyalar sug'urta faoliyatini zararni qoplashga qaratilgan an'anaviy yondashuvdan risklarni oldindan boshqarishga asoslangan zamonaviy yondashuvga o'tishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, Tourism Risk Classification Model (TRCM) turizm risklarini sayohatning barcha bosqichlari bo'yicha baholashga mo'ljallangan innovasion model sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy tasniflash usullaridan farqli ravishda, TRCM modeli tibbiy, transport, kiberxavfsizlik, iqlim va geosiyosiy risklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga oladi hamda sayohatning har bir bosqichida profilaktik chora-tadbirlarni ustuvorlashtirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi TRCM modeli va parametrik sug'urta mexanizmlarini integratsiya qilish orqali turizm sug'urtasida risklarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, tadqiqotda ushbu yondashuvlarni O'zbekiston sug'urta bozorida qo'llash imkoniyatlari baholanib, raqamli sug'urta xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Turizm sug'urtasi zamonaviy sug'urta bozorining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro turizm hajmining o'rtishi, iqlim o'zgarishi, pandemiyalar, geosiyosiy ziddiyatlar hamda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi turizm sohasida yuzaga keladigan risklarning xususiyati va ko'lamini sezilarli darajada o'zgartirdi. Shu sababli turizm sug'urtasida risklarni baholash va boshqarish masalalari xalqaro ilmiy tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.[1].

Ilmiy adabiyotlarda turizm risklari turli yondashuvlar asosida tasniflangan. Ayrim tadqiqotchilar ularni tibbiy, transport, moliyaviy, huquqiy va tabiiy risklarga ajratgan bo'lsa, boshqalar kiberxavfsizlik, epidemiologik hamda geosiyosiy risklarni ham alohida guruh sifatida baholashni taklif etgan. Zamonaviy yondashuvlarda turistning butun sayohat jarayoni davomida risklarni kompleks baholash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. [2].

Parametrik sug'urta konsepsiyasi oxirgi yillarda innovasion sug'urta mahsuloti sifatida jadal rivojlanmoqda. Ushbu mexanizmning asosiy xususiyati shundaki, sug'urta to'lovi real zarar hajmi emas, balki oldindan belgilangan ob'yektiv ko'rsatkich (indeks yoki trigger) yuzaga kelganda avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Bu esa da'volarini ko'rib chiqish muddatini qisqartiradi, ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi va mijozlar qoniqishini oshiradi. Biroq, parametrik sug'urtada basis risk (haqiqiy zarar bilan to'lov o'rtasidagi farq)ni minimallashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xalqaro amaliyotda raqamli texnologiyalar va InsurTech yechimlari turizm sug'urtasining samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), blokcheyn va IoT texnologiyalari yordamida risklarni prognoz qilish, tariflarni individuallashtirish va sug'urta hodisalarini tezkor tartibga solish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu texnologiyalar sug'urta kompaniyalariga risklarni aniqroq baholash hamda mahsulotlarni mijoz ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. [3].

Turizm sug'urtasi bozorida iste'molchilarning sug'urta mahsulotini tanlash omillari ham keng o'rganilgan. Tadqiqotlar turistlar ko'pincha sug'urta polisining narxiga e'tibor qaratishi, biroq qamrov darajasi va istisnolarni yetarlicha baholamasligini ko'rsatadi. Bu esa ko'plab sayohatchilarning yetarli darajada sug'urtalanmasligiga sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, risklar haqidagi axborotning ochiqligi va mijozlarning sug'urta savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda turizm sug'urtasi sohasidagi tadqiqotlar asosan sug'urta bozorini rivojlantirish, huquqiy tartibga solish va turistlarning sug'urta himoyasini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan. So'nggi yillarda mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bilan birga sug'urta xizmatlarini takomillashtirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq, turizm risklarini sayohatning barcha bosqichlarida kompleks baholaydigan hamda parametrik sug'urta mexanizmlarini integratsiya qiluvchi yondashuvlar hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.[4].

Maqsudova tomonidan taklif etilgan Tourism Risk Classification Model (TRCM) mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Ushbu model turizm risklarini sayohatning rejalashtirish, safarga chiqish, sayohat jarayoni, qaytish va safardan keyingi bosqichlar bo'yicha baholash imkonini beradi. [5]. Shu bilan birga, parametrik sug'urta mexanizmlari bilan integratsiya qilinishi natijasida sug'urta to'lovlarini

avtomatlashtirish, risklarni baholash aniqligini oshirish va raqamli sug'urta xizmatlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. [6].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm sug'urtasida innovasion yondashuvlarni qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, TRCM modeli va parametrik sug'urtani yagona integratsiyalashgan risklarni boshqarish tizimi sifatida qo'llash masalasi yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. [8].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotda turizm sug'urtasida risklarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini risklar nazariyasi, sug'urta faoliyatini tashkil etish tamoyillari, InsurTech konsepsiyasi hamda parametrik sug'urta mexanizmlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, grafik tahlil hamda matematik modellashirish usullari qo'llanildi. Tadqiqotning empirik bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozori statistik ma'lumotlari, turizm sohasiga oid rasmiy hisobotlar, xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari hamda turizm sug'urtasi sohasida faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarining amaliyoti o'rganildi. Shuningdek, muallifning ilmiy tadqiqotlari natijasida ishlab chiqilgan Tourism Risk Classification Model (TRCM) modeli asosiy metodologik vosita sifatida qabul qilindi. TRCM modeli turistik xizmatlar hayot siklining barcha bosqichlarida risklarni kompleks baholash imkonini beradi. An'anaviy sug'urta modelarida risklar asosan sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin baholansa, TRCM modelida risklar sayohatning har bir bosqichida alohida tahlil qilinadi. Bunday hollarda sug'urta to'lovi avtomatik ravishda amalga oshiriladi va qo'shimcha ekspertiza talab etilmaydi. Bu esa sug'urta kompaniyalarining ma'muriy xarajatlarni qisqartirish, da'volarini ko'rib chiqish muddatini tezlashtirish hamda mijozlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarini baholashda SWOT tahlil, taqqoslama tahlil hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Shuningdek, TRCM modeli bilan an'anaviy risklarni baholash usulining afzalliklari taqqoslanib, ularning turizm sug'urtasida qo'llanilish samaradorligi baholandi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Tadqiqot jarayonida turizm sohasidagi risklarni boshqarishning amalda qo'llanilayotgan usullari hamda muallif tomonidan taklif etilgan Tourism Risk Classification Model (TRCM) o'zaro taqqoslandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaldagi an'anaviy sug'urta tizimi asosan sug'urta hodisasi sodir bo'lganidan keyin zararni qoplashga yo'naltirilgan bo'lib, risklarning oldini olish va ularni dinamik baholash imkoniyatlarini cheklangan. [7]. TRCM modeli esa turistning butun sayohati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni kompleks baholash imkonini beradi. Bu yondashuv nafaqat sug'urta kompaniyalarining risklarni aniqroq baholashiga, balki sug'urta mahsulotlarini mijoz ehtiyojlariga moslashtirishga ham xizmat qiladi.

1-jadval

TRCM modelida hayot sikli bosqichlarining taklif etilayotgan vazn koeffitsiyentlari (w_i)¹

№	Bosqich nomi	Belgisi	w_i qiymati	Asoslash
1	Rejalashtirish	w_1	0,10	Ma'lumot xatoligi, narx o'zgarishi risklari nisbatan past
2	Sotib olish	w_2	0,15	Moliyaviy firibgarlik, shartnoma risklari o'rtacha
3	Safar	w_3	0,45	Tibbiy, transport, xavfsizlik risklari maksimal
4	Qaytish	w_4	0,20	Reys kechikishi, tranzit muammolar yuqori
5	Safardan keyin	w_5	0,10	Da'vo ko'rib chiqish, moliyaviy tiklanish risklari
JAMI			1,00	

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tibbiy risklar turistlar uchun eng muhim xavf manbai hisoblanadi. Keyingi o'rinlarda transport bilan bog'liq risklar va tabiiy ofatlar qayd etildi. Shu sababli sug'urta mahsulotlarini

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ishlab chiqishda mazkur risklarga yuqori ustuvorlik berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TRCM modeli asosida umumiy risk indeksi hisoblandi:

$$TRI = \sum_{i=1}^n Wi Ri \quad TRI = \sum_{i=1}^n \{W_i R_i\} \quad W_i R_i = \sum_{i=1}^n W_i R_i$$

Hisob-kitoblarni natijasida aniqlanishicha, turistik sayohatning eng xavfli bosqichi sayohat jarayoni hisoblanadi. Aynan ushbu bosqichda tibbiy xizmatlarga murojaat qilish, aviareyslarning kechikishi, bagaj yo'qolishi hamda tabiiy ofatlar ehtimoli yuqori bo'ladi.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi parametrik sug'urta mexanizmining amaldagi afzalliklarini baholash bilan bog'liqdir. An'anaviy sug'urta tizimida zarar hajmini aniqlash uchun ekspertlar xulosasi talab etiladi. Bu esa sug'urta tovonini to'lash muddatini uzaytiradi.

Parametrik sug'urta mexanizmidan esa oldindan belgilangan trigger holati yuzaga kelishi bilan sug'urta tovonini avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

2-jadval

Turizm sug'urtasi uchun parametrik trigger parametrlari tizimi²

№	Trigger	Shart	Ma'lumot manbai	To'lov diapazoni	Dolzarblilik
1	Reys kechikishi	≥ 2 soat	FlightAware, OAG, aviakompaniyalar	\$10–200	Eng ko'p uchraydigan risk
2	Ekstremal harorat	≥ 45°C yoki ≤ -20°C	O'zgidromet, OpenWeather Map	\$50–300	O'zbekiston da yozda 45°C+ kuzatiladi
3	Kuchli yog'ingarchilik	≥ 50 mm/soat	Meteoradar, sputnik	\$30–200	Ekskursiya/plyaj bekor bo'lishi
4	Zilzila	≥ 4,0 ball (Rixter)	FA Seysmologiya instituti, USGS	\$100–500	O'zbekiston seysmik faol zona

Model doirasida turizm sohasi uchun to'rtta asosiy trigger parametrlari belgilandi. Birinchi trigger – reys kechikishi (Flight Delay): shart – reys kechikishi ≥ 2 soat; ma'lumot manbai – aviatsiya ma'lumotlar tizimi (FlightAware, OAG, Cirium); to'lov – aeroport lauj kirish vaucheri (10–30\$) yoki naqd to'lov (50–200\$ kechikish muddatiga qarab); misol – Blink Parametric kompaniyasining Ispaniyadagi tajribasi (AltexSoft, 2025)³. Ikkinchi trigger – ekstremal havo harorati (Extreme Temperature): shart – havo harorati ≥ 45°C yoki ≤ -20°C; ma'lumot manbai – O'zbekiston Gidrometeorologiya xizmat markazi, OpenWeatherMap API; to'lov – 50–300\$ (harorat ortiqchaligi darajasiga qarab); dolzarblilik – O'zbekistonda yozgi oylarda harorat 45°C dan oshishi kuzatiladi, bu sayyohlar sog'lig'iga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uchinchi trigger – kuchli yog'ingarchilik (Heavy Rainfall): shart – yog'ingarchilik ≥ 50 mm/soat; ma'lumot manbai – meteorologiya radarlari, sputnik ma'lumotlari; to'lov – 30–200\$ (yog'ingarchilik kuchi va davomiyligiga qarab); dolzarblilik – yog'ingarchilik natijasida sayyohlik faoliyati (ekskursiyalar, plyaj dam olishi) bekor bo'lishi. To'rtinchi trigger – zilzila (Earthquake): shart – zilzila kuchi ≥ 4,0 ball (Rixter shkalasi); ma'lumot manbai – O'zbekiston Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti, USGS (Geologik tadqiqotlar bo'limi); to'lov – 100–500\$ (zilzila kuchiga qarab); dolzarblilik – O'zbekiston seysmik faol hududda joylashgan, Toshkent 1966 yildagi zilziladan keyin bu riskning ahamiyati yaxshi ma'lum.

Foydalanilgan adabiyotlar (Literatury/References):

1. Knight, F. H. (1921). Risk, Uncertainty and Profit. Houghton Mifflin.
2. Rejda, G. E., & McNamara, M. (2021). Principles of Risk Management and Insurance. Pearson.
3. OECD. (2023). Tourism Trends and Policies. Paris: OECD Publishing.
4. UN Tourism. (2024). World Tourism Barometer. Madrid.
5. Swiss Re Institute. (2024). Sigma Report: World Insurance. Zurich.
6. World Economic Forum. (2024). Global Risks Report. Geneva.
7. Cummins, J. D., & Weiss, M. A. (2022). Innovation in insurance markets. Journal of Risk and Insurance.
8. Biener, C., Eling, M., & Wirfs, J. (2023). InsurTech and digital transformation. The Geneva Papers on Risk and Insurance.
9. OECD. (2022). Digitalisation and Insurance Markets. Paris

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm sohasida risklarni boshqarishga nisbatan an'anaviy yondashuvlar zamonaviy global tahdidlar sharoitida yetarli samara bermaydi. Xususan, COVID-19 pandemiyasi, iqlim o'zgarishi, xalqaro transport tizimidagi uzilishlar, kiberxavfsizlikka oid tahdidlar hamda geosiyosiy beqarorlik turistik sayohat bilan bog'liq risklarning mazmuni va ko'lamini tubdan o'zgartirdi. Bu esa sug'urta kompaniyalaridan risklarni baholash va boshqarishning innovasion modellarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan Tourism Risk Classification Model (TRCM) an'anaviy risklarni baholash tizimlaridan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Birinchidan, mazkur model risklarni sug'urta hodisasi sodir bo'lganidan keyin emas, balki turistik xizmatning butun hayot sikli davomida baholash imkonini beradi. Ikkinchidan, model tibbiy, transport, iqlim, geosiyosiy va kiberxavfsizlik risklarini yagona baholash tizimiga birlashtiradi. Bu esa sug'urta kompaniyalariga har bir turist uchun individual risk profilini shakllantirish imkonini yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, TRCM modeli asosida shakllantirilgan sug'urta mahsulotlari an'anaviy turizm sug'urtasiga nisbatan ancha moslashuvchan hisoblanadi. Bunday yondashuv sug'urta tariflarini risk darajasiga qarab differentsiatsiya qilish, sug'urta portfelining barqarorligini oshirish hamda zararlilik koeffitsiyentini pasaytirish imkonini beradi.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi parametrik sug'urta mexanizmlarining turizm sohasida qo'llanilish istiqbollari asoslab berganidir. An'anaviy sug'urta amaliyotida sug'urta tovonini to'lash uchun hujjatlar yig'ish, ekspertiza o'tkazish va zarar miqdorini baholash talab qilinadi. Bu jarayon ko'p vaqt va qo'shimcha xarajatlarni talab etadi. Parametrik sug'urtada esa sug'urta shartnomasida oldindan belgilangan trigger ko'rsatkichlar (masalan, aviareyslarning kechikishi, havo haroratining keskin o'zgarishi yoki tabiiy ofat sodir bo'lishi) yuzaga kelishi bilan tovon avtomatik ravishda to'lanadi. Bu esa xizmat ko'rsatish tezkorligini oshiradi va mijozlar ishonchini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, parametrik sug'urtani joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, trigger ko'rsatkichlarini aniq belgilash, ishonchli ma'lumotlar manbalari bilan integratsiya qilish va bazaviy risk (basis risk) ni minimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun parametrik mahsulotlarni ishlab chiqishda meteorologiya, aviatsiya, transport va raqamli platformalar ma'lumotlarini yagona axborot tizimiga integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot jarayonida raqamli texnologiyalarning turizm sug'urtasiga ta'siri ham baholandi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), blokcheyn, IoT va bulutli texnologiyalarning joriy qilinishi risklarni baholash aniqligini oshirish, sug'urta mahsulotlarini individuallashtirish va fribgarlik holatlarini kamaytirishga xizmat qilishi aniqlandi. Xususan, sun'iy intellekt algoritmlari turistning safar tarixi, yoshi, sayohat yo'nalishi va boshqa ko'rsatkichlar asosida shaxsiy risk reytingini shakllantirish imkonini beradi. O'zbekiston sharoitida ham turizm sohasining rivojlanishi sug'urta bozori uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq mavjud sug'urta mahsulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi hali yetarli emas. Shu nuqtai nazardan, TRCM modeli va parametrik sug'urta mexanizmlarini milliy amaliyotga joriy etish turistlar uchun xizmat sifatini oshirish, sug'urta kompaniyalari faoliyati samaradorligini kuchaytirish va mamlakatda raqamli sug'urta ekotizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari turizm sug'urtasi tizimini takomillashtirishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Risklarni baholashning innovasion modellari, raqamli texnologiyalar va parametrik sug'urta mexanizmlarining integratsiyasi sohaning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

² Emperik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

³ AltexSoft. Parametric Insurance in Travel: Game Changer or Passing Fad? – 2025